

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MA'NAVIY TARBIYANI AMALGA OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

**Matchanov Bekpo'lat Omanbayevich**

Toshkent davlat pedagogika universiteti

«Maktabgacha ta'lim metodikasi» kafedrasida katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanishning vazifalari, muammolari haqida muhim ma'lumotlar xulosa va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Texnologiya, vosita, usul, metod, pedagogik texnologiya, axborot texnologiya, innovatsion metodlar, ma'naviy tarbiya.

**Аннотация.** В данной статье представлена важная информация о задачах, проблемах использования современных педагогических и информационных технологий в формировании духовных качеств детей в дошкольных образовательных организациях с выводами и рекомендациями.

**Ключевые слова.** Технология, средство, метод, методика, педагогическая технология, информационная технология, инновационные методы, духовное воспитание.

**Annotation.** This article provides conclusions and recommendations on important information about the tasks, problems of using modern pedagogical and information technologies in the formation of children's spiritual qualities in preschool educational organizations.

**Keywords.** Technology, medium, method, method, pedagogical technology, information technology, innovative methods, spiritual education.

O'zbekiston "milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda.

Ta'lim – tarbiyani sifat-samaradorligi ko'p jihatdan maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya mazmuniga bog'liq. Shu maqsadda ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etilmoqda.

Muhtaram prezidentimiz sh.M.Mirziyoyev maktabgacha ta'lim tizimiga e'tibor qaratar ekan, "farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi." [3]

Ta'lim to'g'risidagi qonunda maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir deb ko'rsatilgan.[1] demak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining asosiy vazifalaridan biri bolalarni ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishdir. Bugungi globallashuv davr talabi ma'naviy tarbiyani zamonaviy asosda bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga asosiy faoliyat turlari jarayonida o'zini o'zi

anglashga o'rgatish; muloqot, kuzatish va taqlid orqali kattalarning ma'naviy-axloqiy tajribasini o'zlashtirish; o'zining va boshqalarning xulqiga baho berishga o'rgatish; faoliyat va sujetli-rolli o'yinlar orqali yangi motivlarni paydo qilish va mustahkamlash; ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish; kundalik turmushda xavfsizlik qoidalarini o'rgatish; kattalar, ularning mehnati, kasblar, turli kasb egalariga xos shaxsiy fazilatlar to'g'risida tushunchalar berish; o'yin, o'zaro munosabatlar, oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g'amxo'rlik qilish ehtiyojining paydo bo'lishi orqali xarakter sifatlarini shakllantirib borish; bola tarbiyasida milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rgatish belgilandi.[2] bu vazifalarni amalga oshirishda esa zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayonlariga faol qo'llash talab etiladi.

Pedagogik atamalar lug'atidada, pedagogik texnologiya – o'quv faoliyatini oqilona tashkil etish va jihozlash; imkon qadar ozroq vaqt sarflab, ta'lim natijasini kafolatlaydigan izchil pedagogik tizim; pedagogik muammolarni metodologik darajada hal etishga imkon beruvchi pedagogik hodisa; o'quv jarayonini to'liq boshqarish imkonini beradigan tizimli tafakkur usulini pedagogik amaliyotga tatbiq etish shakli; d) pedagogik maqsadga erishishni kafolatlaydigan xarakatlarning izchil tizimi sifatida ta'rif berilgan.[4]

Ushbularni inobotga olsak maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni ma'naviy fazilatlarini shakllantirishni tashkil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bizga ta'lim-tarbiya jarayonlarini loyihalashtirish, vaqtni tejash, muommoni aniqlash va uni bartaraf etish natijalarni oldindan pragnoz qilish imkonini beradi. Zamonaviy pedagogik texnologiya o'quv tarbiya jarayoni uchun loyihalanadi va belgilangan maqsadni yechishga qaratiladi. Har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadidni aniq belgilab beradi va shunga mos holda ma'lum bir pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi.[5]

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilimlarini mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ma'lum harakat uchun motivatsiya berib ta'lim oluvchilarni turli sharoitda o'zlarini namoyon etishga qaratiladi.

**“Ijodiy o'yin”** texnologiyasi ushbu texnologiyadan foydalanish bolada ijodiy faoliyatni rivojlantirish, fantaziya izlanish, muommoga yechim toppish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi. Ijodiy o'rganish texnologiyasi bolalarni borliqni estetik idrok qilishga chaorlaydi. Bu texnologiyada bolalar rasm chizish (rol o'ynash) orqali o'zlarini ideallarini shakllantiradilar va hu obrazlarda qaysi ma'naviy fazilatlar mujassam ekanligini aytib beradilar. Ushbu texnologiyada bola tarbiyachi bilan hamkorlikda ishlaydi (oila bilan hamkorlikda tashkil etish ham tavsiya etiladi).


Bola o'z sevgan qahramonini tavsirlaydi (buyuk alloma, xalq qahramoni, ertak, doston qahramonlari). Bola o'zi tasvirlagan qahramonda qanday ma'naviy fazilatlar mujassam etganini aytib beradilar (bu uyga vazifa shakllida ham berilishi mumkin).

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ma'naviy fazilatlarini ro'yobga chiqarishda **“kvest”** texnologiyasi ham samaralidir.

**“Kvest”** izlanish, sarguzasht, qidirish degan ma'noni anglatadi) hikoya mazmuniga ega sarguzashtli interfaol o'yin, uning ishtirokchilari belgilar orqali

harakatlanib, topshiriqlarni topadi va bajaradi. Kvest o'yini – bu bolalarning kognitiv qiziqishini va muammolarni ishtiyoq bilan hal qilish istagini faollashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadigan eng samarali va o'ziga xos ta'lim texnologiyasi.

Maktabgacha katta yosh bolalari o'rganishdan ko'ra oddiy o'yinlarni yoqtiradi. Bolalar shu o'yin jarayonida u-yoki bu ma'naviy fazilatlarni egallaydilar. Kvestda bolalar maqsadga erishish uchun harakat qilib jumboqlarni echish, vaziyatga to'g'ri echim topish lozim. Biror bir syujet orqali muammo yaratiladi va uni hal etish vazifasi qo'yiladi. Kvestda vazifa alohida bolaga emas butun bir jamoaga beriladi, bu ularda jamoaviylik ruhini shakllantiradi.



Texnologiyada bola yakuniy natijani umumiy kuchga bog'liq ekanligini tushinadi

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda standart vaziyatlar, metodlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ma'naviy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashib, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirish muhimdir.

#### **Foydalanilga adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston respublikasining "ta'lim to'g'risida"gi qonuni. 2020-yil 23-sentabr.
2. O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori.
3. Sh.M.Mirziyoyev "yangi o'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" to'ldirilgan ikkinchi nashr. T.: «o'zbekiston» nashriyoti, 2023. 213-b
4. M. Odilova d. Jabbarova, s. Jo'raev "pedagogik atamalar lug'ati" namangan 2023. 57-b
5. H.T.Omanov, m.B. Xattabov "pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" o'quv qo'llanma-t.: 2016 y. 26-b
6. "Ilk qadam" takomillashtirilgan davlat o'quv dasturi. T.: 2022to 35-b